

BUXORO AMIRLIGI TAXTIGA MANG'ITLARNING KELISHI, ASHTARXONIYLAR SULOLASINI BOSHQARUVDAN KETISHI

Abdullayeva Madinaxon Erkinjon qizi

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti magistratura yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Muallif o‘z maqolasida mavzuga oid ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar hamda, manbalar asosida Buxoro amirligi boshqaruviiga mang‘itlar sulolasini kelishi, amirlik boshqaruvidagi o‘ziga xos jihatlar, hukmdor amirlar Muhammad Rahimbiy, Amir Shohmurodning shaxsiyatiga oid qiziqarli ma’lumotlar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Davlat, boshqaruvi, hukmdor, amir, ashtarxoniyalar, mang‘itlar, Muhammad Rahimbiy, Shohmurod, islohot, shayxulislom, qozi, shariat.

Аннотация: Автор в своём статье, на основе научный, научно-популярный литератур и источников анализирует приход к политический власти Бухарского эмирата представители династии Мангытов.

А так, же в статье анализируются специфические аспекты государственного управления Бухарского эмирата и исторических личностей таких, как эмир Мухаммад Рахимбий и эмир Шахмурада.

Ключевые слова: Государство, управления, повелитель, эмир, аштарханиды, мангыты, Мухаммад Рахимбий, Шахмурад, реформы, шейхуль-ислам, кази, шариат.

Annotation: In this article based on scientific, literature and sourcesrelated to the subject, the arrival of the Mangit dynasty in the management of the Bukhara Emirate, the peculiar aspects of the management of the Emirate, interesting information about the personality Mukhammad Rakhimbiy, Shakhmurad and of the ruling emirs

Keywords: State, management, the ruler, emirs, ashtarhan dynasty, mangit dynasty.

Mazkur maqolada Buxorodagi mang‘it amirlarining hukmronlik davri va shaxsiy hislatlari va ulardagi muammolar ochib berishga harakat qilingan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bildirilgan quydagi fikrlar hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan: “Ota-bobolarimiz asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy ahloqiy, ilmiy kurashlarini o‘zida mujassam etgan bu nodir

qo‘lyozmalarни jiddiy o‘rganish davri keldi”¹. Buxoro amirligi va hukmdorlar tarixini yoritgan bevosita o‘sha davrda yashagan tarixchilarning asarlarida amirlik tarixi barcha asarlarda ham xolislik bilan yoritilmagan. Mazkur holatda amirlik tarixiga oid ma’lumotlarni o‘rganishda xolisona fikr bilan yondashish talab etiladi. Buning uchun o‘sha davrga oid bir necha asarlar o‘rganilib yakdil fikr bildirish eng to‘g‘ri yo‘l sanaladi. Rossiyaning nashrlarida chop etilgan ba’zi materiallar o‘zining aniqligi va ishonarli dalillar bilan yoritilganligi uchun muhim manba bo‘la oladi. Biroq bu davr materiallarining hammasini ham xolislik bilan yoritilgan deyaolmaymiz. Chunki ba’zi materiallarda o‘sha davr mafkurasi o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Buxoro amirlarining hukmdorlik davr tarixi sovet davri tarixchilarini ham qiziqtirib kelgan va bir guruh olimlar tomonidan mazkur davr o‘rganilgan. Jumladan: V.Bartold, S.Ayniy, F.Xo‘jayev, A.Hamroyev va boshqalar. XX asr boshlariga kelib Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi davr boshlandi. Bir qator ilg‘or fikrli namoyondalar yetishib chiqib, ular jadidchilik bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatdilar. Ana shu davrda jadidlar Buxoro amirligida demokratik islohotlar o‘tkazish, uning tanazzulga yuz tutgan hayotini yangidan tiklash maqsadida o‘z asarlari bilan maydonga chiqdilar². Mang‘itlarning Buxoro hududiga kelib mustahkam o‘rnashishi bekjami urug‘i yetakchisi Xudoyqulibiyga borib taqaladi.³ Buborada Muhammad Yoqub o‘zining “Gulshan-ul-muluk“ asarida quydagicha yoritib o‘tadi: ”Mang‘itlar [hozir] 12000 uylik bo‘lib bir necha urug‘larga bo‘lingan. Avvalgi [urug‘] to‘qmang‘it, ular ming uylik kishi bo‘lib, ular ham 4 firqaga bo‘linadi. Avvalgi firqa sultonlar, ular 300 uylik. Sultonlar firqasining o‘zi ham ikki firqadir. Ulardan biri bekjami, amirlar jamoasi (Buxoro amirlari) shu firqadan. Ular 200 uylik kishi bor⁴. Aynan amirlar jamoasi esa Xo‘jamberdibiy naslidan kelib chiqqan. Shutariqa Xo‘jamberdibiyning o‘g‘li Bekberdibiy, uning o‘g‘li Javushbiyuning, o‘g‘li Keldibiy, uning o‘g‘li Xudoyqulibiydir. Xudoyqulibiy davrida kenagas va mang‘itlar birlashib Subhonqulixon (1681-1702) zamonida Shahrисабз viloyatini To‘g‘anbiy urug‘idan tortib olganlar. Bu ikki el ulug‘i bo‘lgan Rustambiy kenagasi Shahrисabzga hokim qilganlar. Kimning yoshi ulug‘ bo‘lsa shuni elga hokim qilardilar. Bu ikki el Buxoroga kelib xondan amal olganlar. Javushbiyning birodarzodasi Muhammadyorbiy to‘qsabo amalga ko‘tarilgan. Uning vafotidan so‘ng amalini Xudoyqulibiyga bergenlar. U xon

¹ КаримовИ.А.Тарихийхотирасизкелажакийўқ.-Тошкент:Шарқ,1998.Б-4

² Ахмад Дониш.ИсторияМангитской династии / Пер.,предис.и прем.И.А.Наджафовой.-Душанбе:Дониш,1967.

³ Мирза АбдулазимСами.Тарих-и салатитин-и мангития (история мангитских государей).Изд.Текс,перевод И примеч.Л.М.Епифановой.-М.,1962; Ахмад Дониш.Историямангитской династии / Пер.,предис.и прим.И.А.Наджафовой.-Душанбе: Дониш,1967.

⁴Ўзбекистонтарихи.ХрестоматияТошкент 2014 3-жилд “ Фан ва технология” А.Шарипов 56-бет

qoshida katta e'tiborga ega bo'lgan. Rustambiy kenagas vafotidan so'ng Ubaydullaxon (1702-1711) Xudoyqulibiyning o'g'li Xudoyorbiya Shahrizabz hukumatini topshirgan va unga devonbegi unvonini hambergan. Xudoyorbiy 10 yil hokimlik qilib, Abulfayzxon (1711-1747) davrida otaliq mansabiga ko'tarilgan Xudoyorbiy vafotidan so'ng uning o'g'li Hakimbiyni xon qoshiga keltirib parvonachi amalini olib berib Shahrizabzga yuborganlar. Ammo kenagasarlar xon yuborgan amaldorga qaramasdan o'z sardorlaridan Ibrohimbiyni sardor qilib tayinlaydilar. Hakimbiyesa Abulfayzxon huzuriga qaytib devonbegi unvonini olgan. Ammo Shahrizabzliliklar yana uni qabul qilmaganlar. Shundan so'ng bir muddat Chiroqchi daturgan. Shahrizabz, Samarcand va Miyonqo'l hukumati Ibrohimbiy qo'liga o'tganda Hakimbiy Ibrohimbiy kenagas otaliq xizmatiga o'tgan. Ibrohimbiy kenagas Abulfayzxonga qarshi isyon ko'targanda Ibrohimbiyni tark etgan Hakimbiy xon qoshiga borib unga sodiqligini izhor etib otaliq mansabiga ko'tarilgan. Shu tariqa Hakimbiyning nufuzi ortidan mang'itlarning ham Buxoroda nufuzi ortib borgan. Buxoroda mang'itlarning xalq orasida nufuzining ortib borishi va hokimiyatga intilishining kuchayish davri bevosita ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon hukmronlik yillari (1711-1747) bilan bog'liq. Abulfayzxon davrida boshboshdoqlik, hududlar uchun kurash, o'zbek qabila-urug'lari o'rtasida hukmronlikka bo'lgan kurash avj olib ketgan, Ayrim hududlarning mustaqillikka intilishi davlatni to'liq tanazzulga olib kelgan edi. Buning asosiy sabablaridan biri esa bevosita Abulfayzxonning boshqaruvi qobiliyatiga ega emasligi va davlatda bo'layotgan siyosiy jarayonlarga bee'tibor munosabatda bo'lganligidir. Tarixchi Mirzo Abdulazim Somiyning ma'lumotlariga e'tibor qaratsak, Abulfayzxon davlatni boshqarishdagi qobilyatsizligi tufayli barchani o'ziga dushman deb bilar va shu maqsadda bir necha sodiq amirlar u sardorlarni qatl ettirib, mamlakatning eng nufuzli va obro'li shaxslarini nufuzini to'kishga qattiq kirishdi. 1740-yilda Eron qo'shinlari Nodirshoh boshchiligidida Buxoroga qarshi yana hujum boshladi. Buxoro va Xiva xonlari umumiylashmanga qarshi kurashish uchun birlashaolmadilar. Bu ham yetmaganidek, Buxoroning o'zida xoinlik yuz berdi. Xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lib olish niyatidan qaytmagan Qarshi hokimi Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketdi. Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtiraolmadni va taslim bo'ldi. Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxonga jo'natdi.¹

Muhammad Rahimbiy. Buxoroda ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan mang'itlar va qo'ng'irotlarning nufuzi baland edi. Bu ikki qabila haqiqiy hokimiyat ashtarxoniyalar qo'lida bo'lib turgan davrlarda ularga sadoqat bilan

¹<https://hozir.org/tasdiqlayman-v16.html?page=4>

xizmat qilgan edilar. Biroq, keyinchalik Buxoroda mang‘itlar alohida nufuzga ega bo‘lish uchun astoydil kurashdilar. Hakimbiy davrida bu maqsadga erishdilar. Muhammad Hakimbiy 1743-yilda vafot etdi. Uning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy o‘zining muntazam qo‘singa egaligidan foydalanib, hokimiyatda otasi kabi alohida mavqe uchun da’vogarlik qila boshladi. So‘ngi ashtarkoni Abulfayzxon unga Bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo‘ldi va oxir-oqibatda markaziy hokimiyat uning qo‘lida to‘plandi. Nodirshoh 1747-yilda o‘ldirilganidan so‘ng Eronda boshlangan ichki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo‘l ochib berdi. Uning buyrug‘i bilan Abulfayzxon ham 1747-yili o‘ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzning o‘g‘li Abdulmo‘minni o‘tqizdi (soxta xon) va uni o‘ziga kuyov qilib oldi. Ko‘p o‘tmay Muhammad Rahimbiy kuyovi Abdulmo‘minni, uning o‘rniga o‘tqizilgan soxta xonlar — Ubaydullaxon va Sherg‘oziyxonlarni ham qatl ettirdi. Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo‘llab-quvvatlashi bilan 1756-yilda o‘zini hukmdor deb e’lon qildi. Biroq mang‘itlar chingiziylar nasliga mansub bo‘lmaganligi uchun mang‘it hukmdorlari o‘zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Ular Buxoro mintaqasining diniy hukmdori — amirul-mo‘minin hisoblanganlar. Shunday qilib, 1756-yili Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola mang‘itlar sulolasini keldi. Buxoro amiri Muhammad Rahimbiy (1756-1758) o‘zining qisqa biroq sermazmun harbiy va siyosiy faoliyati bilan Turon tarixida o‘chmas iz qoldirdi. U Buxoro xonligini iqtisodiy bo‘hron va siyosiy bo‘linishlardan qutqardi. Muhammad Rahimbiy Buxoroda 164-yil hukm surgan mang‘itlar sulolasiga asos soldi. Muhammad Rahimbiy vafot etgach taxtni uning amakisi Amir Doniyolbiy ibn Xudoyorbiy (1758-1785) boshqaradi. Uning hokimiyatga kelishi borasida quydagicha fikr bayon etilgan: 1758-yil Muhammad Rahimbiy vafot etdi, uning taxt uchun davogar o‘g‘il farzandi yo‘qligi bois, Norbo‘tabiyning o‘g‘li Fozil To‘ra Muhammad Rahimbiyning qizi tomonidan amir etib ko‘tarildi. Amir Doniyol Muhammad Rahimxонни amakivachchasi Fozil To‘rani taxtdan chetlattirib, Chingizzon avlodidan bo‘lgan Abulg‘ozixonni taxtga o‘tqazadi.¹ Amirlik sultanatini esa o‘zi boshqaradi. Uning hukmronlik davrida siyosiy parokandalik avj olib toju-taxt uchun kurash avj olgan. Amir Doniyolbiy qisqa fursat davomida dastlab Fozil to‘rani taxdan tushirgan bo‘lsa, so‘ngra o‘zi o‘tqazgan chingiziy avlodidan bo‘lmish Abulg‘ozini nomini xutbaga qo‘sib o‘qittirib uning nomidan tanga zarb ettiradi. Amir Doniyolbiy 27 yillik norasmiy faoliyatida ko‘p vaqtı unga qarshi isyonlarni bostirish bilan o‘tdi. Uning vafotidan so‘ng o‘g‘illaridan Shohmurod rasmiy shakldagi mang‘it amiri sifatida keldi. Ayrim tarixchilarimiz mang‘itlar sulolasining kelishini amir Shohmurod bilan

¹Сайийд Мансур Олимий Бухоро Туркистон бешиги 26-бет

boshlanishini beradilar. Mang‘itlar davlatni 1920-yilgacha idoraqildi. Shu o‘rinda keltirib o‘tish kerakki, mang‘itlar sulolasining kelishini tarixchilarimiz amir Shohmurod bilan boshlanishini beradilar. Amir Shohmurod amakisi Muhammad Rahimbiydan so‘ng mang‘itlar urug‘idan chiqqan ilk hukmdor sifatida 1785-yil o‘z faoliyatini boshladi va 1800-yilgacha boshqardi. U tarixda va islom falsafasida Amir Temur kabi adolatli faoliyat yuritgan hukmdor sifatida va ilmlar homiysi sifatida tanildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, mang‘itlar o‘zbek millati tarixida o‘ziga xos davlatchilik tuzganlari, davlat boshqaruviga kelishlari va mintaqada ta’lim tizimi qayta ravnaq topishi, ashtarkoniylar sababli yo‘q olib borayotgan sunniylik aqiydasini saqlanib qolishiga o‘z hissalarini qo‘srganlari. Hamda har bir davr o‘zbek sulolasi qurgan buyuk bir tarixiy davr tanazzulchi amirlari va ularning tanazzuliga sabab bo‘lgan holatlar haqida o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. Sharq-1998.
2. Ahmad Donish. “История Мангитской династии”. Душанбе-1967
3. A.Sharipov. “O‘zbekiston tarixi Xrestomatiya”. Fan va texnologiya-2014
4. A.Zamonov. “Buxoroning darvesh hukmdori haqida ba’zi mulohazalar”. O‘tmishga nazar. 2-maxsus son. Toshkent-2020.
5. Q.Rajabov. “Muhammad Rahimxon-Mang‘itlar sulolasi asoschisi”. Buxoro mavjiali-2005